

## “JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT” TAMOYILINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14903970>

**Alimov Akmalbek Abdumajidovich**

O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish, yoshlar jinoyatchiligi va huquqbazarliklar profilaktikasiga ko’maklashish bo’limi boshlig’i

### ANNOTATSIYA

*Maqolada “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyilining nazariy-metodologik jihatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Insoniyat taraqqiyotini, ilm-ma’rifatni nurga, jaxolatni esa zulmatga, insonlarni xalokatga boshlaydigan qorong‘u choxga qiyoslanadi. Odamlar qadim-qadimdan buyon jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishga intilib kelgan. Chunki, unga qarshi kuch ishlatilsa, zo’ravonlik vositasida kurash olib borilsa, jaholat avvalgidan ham battar kuchayib ketadi. Jaholatga qarshi kurashning ma’rifatli usuli hozirgi davrda, bashariyat taraqqiyoti borasida ancha ilgarilab ketgan XXI asr ibtidosida ham g’oyat muhim kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *ilm, ma’rifat, jaholat, bashariyat, ibrido, inson, zamon, makon.*

### АННОТАЦИЯ

*В статье научно обоснованы теоретические и методологические аспекты принципа «Просвещение против невежества». Человеческий прогресс, знание и просвещение сравниваются со светом, невежество - с тьмой и темной бездной, ведущей людей к гибели. С древних времен люди стремились бороться с невежеством с помощью просвещения. Потому что если против него будет применена сила, если борьба будет вестись посредством насилия, невежество станет еще хуже, чем прежде. Просвещенный метод борьбы с невежеством приобретает все большее значение в нынешнюю эпоху, даже в начале XXI века, когда человечество достигло большого прогресса в плане развития.*

**Ключевые слова:** наука, просвещение, невежество, человечество, начала, человек, время, пространство.

### ABSTRACT

*The article scientifically substantiates the theoretical and methodological aspects of the principle of "Enlightenment versus ignorance". Human progress, knowledge and enlightenment are compared to light, ignorance - to darkness and a dark abyss leading people to destruction. Since ancient times, people have sought to fight ignorance with the help of education. Because if force is used against it, if the*

*fight is waged through violence, ignorance will become even worse than before. The enlightened method of fighting ignorance is becoming increasingly important in the current era, even at the beginning of the 21st century, when humanity has achieved great progress in terms of development.*

**Keywords:** science, enlightenment, ignorance, humanity, beginnings, man, time, space.

## KIRISH

Biz yangilanish, tafakkur va fikr erkinligi, erkin ijod qilish, o‘z qobiliyat va iqtidorimizni ro‘yobga chiqarishga har qachongidan-da ko‘proq imkoniyat yaratilgan, biroq shu bilan birga shiddat bilan o‘zgarib borayotgan, o‘ta murakkab va tahlikali, milliy qadriyatlarimizga begona, yoshlarning ongi va qalbini egallahsga qaratilgan g‘arazli g‘oyalar xuruji ham tobora avj olib borayotgan zamon va makonda yashab kelmoqdamiz. Globallashuv sharoitida mafkuraviyy tahdid va xurujlar jamiyatning ijtimoy-iqtisodiy, texnikaviyy-axboriy kabi bir qator sohalarida turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Bular jumlasiga Yer shari aholisiga davosi yo‘q turli kasalliklarni maqsadli tarqatish, inson organlari bilan savdo qilish, narkobiznes, “Islom harakati”, “Qora sallalilar”, “Salafiylik”, “Musulmon birodarlari”, “Uzun soqollilar”, “Islom lashkarlari”, “Ishid” va buzg‘unchilik faoliyati kabilar kiradi [1, 70-b.].

Bunday razilliklarning ko‘payishiga insoniyatning azaliy dushmani bo‘lgan nafs balosi asosiy sababdir. Dunyodagi barcha yovuzlik, qon to‘kishlar, buzg‘unchiliklar nafsiiga asir bo‘lganlarning jirkanch ishidir. Unga qarshi tura olish uchun zamonamiz inson zotidan jaholatdan yiroqlashib, chuqur bilim, keng dunyoqarash hamda kuchli ma’naviy-ma’rifiy kuch-qudratga ega bo‘lishni talab etmoqda.

## Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

“Jaholatga qarshi kurashning eng ma’qul va samarali yo‘li nima? Johilga johillik bilan qarshilik ko‘rsatish yonib turgan olovga yog‘ sepish bilan barobar. Negaki, jaholat botqog‘iga botgan kishi o‘zini tubanlikda emas, yuksakda deb hisoblaydi, unga kimdir jahl qilgan sari jazavasi qo‘zg‘ayveradi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurashish kerak. Bu O‘zbekiston rahbariyati tanlagan eng to‘g‘ri, oqilona va odilona yo‘ldir” [2].

“Ma’rifat va jaholat bir-birini inkor etadigan tushunchalar bo‘lib, qayerdaki ma’rifat bo‘lsa, o‘sha yerda nur bo‘ladi, yaxshilik urug‘lari kurtak ochadi, odamlar baxtiyor va farovon hayot kechiradi. Aksincha, jaholat bor joyda ma’rifat zaiflashgan, mehr-oqibat chekingan bo‘ladi. O‘sha yerdan qut-baraka, fayz ko‘tariladi.

Mamlakatimizdagi tinchlik, farovon hayotga o‘z-o‘zidan erishilayotgani yo‘q. Turli mafkuraviy xurujlar, yovuz niyatli kishilarning ta’sirlariga qarshi aql bilan chora ko‘rish, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurishishni taqozo etilmoqda” [3].

Ma’rifat nima-yu, jaholat nima? Jaholat izohli lug‘atimizda “Ilm, ma’rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat” deya talqin etilgan. Ma’rifat esa insonni ma’naviy kamolotga yetkazuvchi uzlucksiz ta’lim-tarbiya jarayonidir. Har kim jaholat urug‘ini qurutishi lozim. Ma’rifatga har qadamda jaholat to‘siq bo‘lishi juda ko‘p hayotiy misollardan ma’lum. Jaholatga qarshi esa faqat ma’rifat bilan kurashish lozim.

Afsuski, ilmsizlik, ya’ni dunyoviy va diniy bilimlardan yetarli darajada xabardor bo‘lmaslik hamda ekstremizm, radikalizm va terrorizm kabi XXI asrning eng dahshatli balosiga aylanib ulgurgan destruktiv g‘oyalar domiga tushib qolishlik zamonaviy jaholatining jirkanchli ko‘rinishlaridan hisoblanadi.

Ilmsizlik, ilmgaga rag‘batsizlik, undan yuz o‘girish johillik hisoblanadi. Tarixda ham ilmsizlik oqibatida yuzaga kelayotgan barcha munosabatlar nizolarga aylanib, jamiyatning taraqqiyotiga rahna solgan.

Ilmsizlik jamiyat taraqqiyotining kushandasidir, bilimsizlik oqibatida oilalar buzilmoqda, aka-ukalar begonalashib ketmoqda, qarindoshchilik rishtalari uzilmoqda, do‘sstar, qadrdonlar oqibatsiz bo‘lib, yiroqlashmoqda. Buning natijasida esa ichki xotirjamlik, oilalardagi xalovat ham yo‘qolmoqda.

Ilmsizlik natijasida yoki ilmning sof manfaatini o‘rniga o‘zining shaxsiy manfaatini oldinga qo‘yish oqibatida jamiyatda nizolar, kelishmovchiliklar vujudga kelmoqda.

Ma’rifatning kishilarga foydasi behisobdir. Ilmli insonda sabr-toqat shakllangan bo‘ladi, qiziqqonlik quyi darajada bo‘ladi, qaror chiqarishga shoshilmaydi, qalblarni og‘ritishdan yiroqlashadi, xato ish qilsa to‘g‘rilashga shoshadi.

Ilmsiz, ma’rifatsiz kishi esa o‘z hayotini behuda o‘tkazadi, shuningdek, o‘zgalarni ham johilligi uchun aziyatga qo‘yadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Maqolada umumiyo o‘zaro aloqadorlik, tizimlilik, tarixiylik tamoyillari, tizimli tahlil, analiz-sintez, qiyosiy tahlil va umumlashtirish kabi usullardan foydalilanilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysisand results).** E’tibor bersak, dunyoda sodir bo‘layotgan ko‘plab razolat, urush va nizolarga bilimsizlik, johillik sabab bo‘lmoqda. O‘zlarini bilimdon sanovchi ayrim chalasavod kimsalarning harakatlari ayanchli oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Din niqobi ostida o‘zlarining puch g‘oyalarini yoshlar ongiga zo‘r berib singdirmoqchi bo‘layotgan, muborak Islom diniga mutlaqo yot g‘oyalarni targ‘ib etayotgan kuchlarning soxta chaqiriqlariga ishonib qolmaslik

uchun ham ilm kerak. Chunki ilmli kishi haqiqat va yolg‘onning farqiga boradi, axborotlar oqimidan o‘zi uchun foydalisini ola biladi. Qolaversa, ilmsizlikka qarshi kurashadi.

Bu borada ayniqsa, islom dinini niqob qilib olgan ilmsizlarni misol qilib keltirish mumkin, ular aslida ma’rifatli bo‘lmasalarda oyat va hadislarni o‘zlariga moslashtirib sharhlab oladilar. Aslida, oyat va hadislarni sharhlash uchun ilmda ma’lum darajaga ega bo‘lish muhim sanaladi. Bu haqida Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamdan – Allohning Kitobida o‘z ra’yi bilan gapirsa, ilmsiz fikr bildirsa xato bo‘lishi hamda og‘ir gunoh ekanligi mazmunidagi hadislar keltirilgan. Demak, kimdandir diniy yoki dunyoviy ma’lumotlarni eshitganda, avvalo, uni chuqur tekshirib ko‘rish, ustoz tanlashda adashmaslik muhimdir. Bu kabi aldovlardan uzoq yurish uchun esa bilinga ega bo‘lish lozim.

Ilmsizlik, ilm kashfiyotining asl maqsadidan to‘g‘ri foydalanmaslik jaholatdir. Ilmsizlik orqasidan oddiy bir jumla noto‘g‘ri talqin qilinib, umuman boshqa bir dalillar bilan asoslantirilishi oqibatida insonlarning umidsizlik darajasi ortib ketishi, hayotning ozgina mashaqqatlariga duch kelinsa, sabrsizlikka yo‘l qo‘yiladi, natijada, huquqbuzarliklar sodir etilib, chaqaloqlarni sotish, akaning ukadan o‘g‘irlik qilishi, qaynona va kelin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, buning ortidan ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi, hattoki, o‘zining joniga qasd qilish holatlari ham kuzatilmoqda. Dunyoga tafakkur nazari bilan qarash, ilm kashfiyotlaridan to‘g‘ri foydalanmaslik, ularni noto‘g‘ri, g‘arazli maqsadlarda qo‘llash natijasida turli kassaliklar vujudga kelmoqda, qishloqlar, shaharlar yo‘q bo‘lib, xalqlar qirilib ketmoqda, odamlar nogiron bo‘lib, qolgan umrini qiyinchiliklar bilan o‘tkazmoqda. Bularning barchasini ma’rifatsizlikdan deb baholash mumkin.

Ilmning chegarasi yo‘q ekanligi, uning odamzodni yuqori darajalarga ko‘tarishi, insonlar tug‘ilganidan to so‘nggi nafasigacha ilm talab qilib, uni to‘la his qilgan holda umr bo‘yi o‘zini tolibi ilm deb hisoblab yurishi kerakligi, ilmli, olim kishilarning sha’ni nafaqat jamiyat orasida, balki Yaratganning nazdida ham yuksak bo‘lishi Quroni karimda ham ta’kidlangan.

“Muborak hadislarning birida Payg‘ambarimiz (s.a.v.) o‘zi ilmni o‘rgangan va o‘zgalarga ham o‘rgatgan kishini – o‘ziga suvni singdirib, so‘ngra ko‘plab o‘t-o‘lanlarni o‘stirgan yerga o‘xhatganlar. Ilmga e’tibor bermagan kishini esa – mo‘l yomg‘ir yog‘sa-da, na suv to‘plamaydigan, na ekin o‘stirmaydigan tekislikka qiyoslaganlar. Darhaqiqat, ilm o‘rganuvchi barchaga kerakli inson bo‘lib, undan atrofdagilarga hamisha manfaat yetadi. Ammo, ilmga qiziqmaydigan, bee’tibor kishining na o‘ziga va na boshqalarga foydasi bo‘ladi” [4].

Ma'rifatga ega bo'lmay turib maqtanish bu jaholatdir. Shuning uchun donolar ilm egarlangan otdir, bilganga do'st, bilmaganga dushmandir [4, 55-b.].

Ilmlı insonning so'zi ravon, aniq va tushunarli bo'ladi, ilmsiz odamda ishonchsizlik kuchli bo'lib, nutqida mavhumlik ko'proq bo'ladi. Johil kimsa aniq bir manfaatni ko'zlab ilm yo'lida yursa-da, manfaatga erishganidan so'ng shu ilmga sodiqlikni yo'qotadi, ilmnning sof fazilatlarini soxtalashtirib, yangi foyda sari odimlaydi. Bunday odamlardan barcha yiroqda yurishni lozim deb biladi.

Ana shunday murakkab bir sharoitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Jaholatga qarshi – ma'rifat" quroli sifatida xizmat qiluvchi, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy meros o'ziga xos najot qal'asi, himoya qo'rg'oni vazifasini o'taydi.

Ma'rifatning kishilarga foydasi behisobdir. Ilmlı insonda sabr – toqat shakllanadi, qiziqqonlik quyi darajada bo'ladi, qaror chiqarishga shoshilmaydi, qalblarni og'ritishdan yiroqlashadi, xato ish qilsa to'g'rilashga shoshadi. Hozirgi kunda odamlarda, ayniqsa, yoshlarda ustozlarni ortidan quvib, ilm izlash sustlashib, zamonaviy telefonlarga mukkasidan ketish avj olib ketgan. Kitoblarni varaqlab, ustozlarga murojaat etish kamayishi natijasida chalasavodlik yuzaga kelmoqda. Chalavasodlikning oqibati ham yaxshi emasligi ham barchaga ma'lum.

"Yurtimiz – ilm-fanning o'chog'i, allomalar Vatanidir. Ilmu ma'rifatga bo'lgan ishtiyoq azaldan xalqimizning qoniga singib ketgan. Buyuk bobokalonlarimiz o'zlarining yuksak aql salohiyatlari bilan dunyo tamadduniga o'z hissalarini qo'shganlar. Tarixdan ma'lum, she'riyat mulkida shohu sulton Alisher Navoiy, hadis olamida musulmonlar amiri bo'lgan Imom Buxoriy, tibbiyotda olamshumul kashfiyotlar bilan "Tibbiyot otasi" nomini olgan Abu Ali ibn Sino, "tarixdagi eng ulkan aql egasi" deya tan olingan Abu Rayhon Beruniy kabi bobokalonlarimiz har bir o'g'il-qiz uchun buyuk namunadirlar" [5, 204-b.].

Muhaddislari sultoni Imom Buxoriyning ibratli hayot yo'llari ilm olish uchun uzoq masofalar ahamiyatsizligidan darak beradi. Imom Termiziyydek dahoning qat-qat to'plamlari bilim olishda arzimas narsaning o'zi yo'qligini ko'rsatadi. Ibn Sino singari qomusiy olimning asarlari esa ilm sarhadsiz ummon ekanligini, unda betinim suzmoq mumkinligini o'rgatadi. Biz bugun ana shu ilmlar ummonida ekanmiz, undan keragicha olib, taraqqiyot sari odimlash o'z qo'limizda.

Ba'zan tolibi ilmlar ustozga savol berishni or deb hisoblaydilar. Payg'ambarimiz (s.a.v)bir hadislarida shunday marhamat qiladilar: "*Ilm – xazinadir, uning kaliti savoldir. So'ranglar, so'rashda 4 kishi savobga ega bo'ladi: So'rovchi, olim, ya'ni o'qimishli odam, eshituvchi va ularni do'st tutuvchi*". Shuning bilan birga, talaba savol berish jarayonida, savolning mazmuniga, kerakliligiga ham e'tibor berishi

muhim. Bundan tashqari, ilm olish jarayonida internet tarmoqlaridan har doim emas, faqat kerakli o‘rinlarda foydalanish mumkin. Ana shu jihatlarga e’tibor berilsa, ilm egallashga kirishilgan vaqt zoye ketmaydi [6, 104-b.].

Xo‘s, kim ko‘proq jaholat g‘oyalariga moyilroq? Ko‘pgina statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, terrorizmga olib boradigan zo‘ravon ekstremizm va radikalizm g‘oyalariga aldangan O‘zbekiston fuqarolari ya’ni, Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Qozog‘iston, Ukraina, AQSH, Shvesiya kabi davlatlarda ishlayotgan mehnat migrantlari hisoblanadi. Mehnat migratsiyasi bu O‘zbekiston Respublikasida ish o‘rinlarining yetishmasligi ishsizlik oqibatidir” [7].

Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda radikallashuv va yollash holatlarining 80 foizigacha qismi Internet orqali amalga oshirib kelinmoqda. Hozirda 22 milliondan ortiq kishi mamlakatimizda Internetdan foydalanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyoda Internetdan foydalanuvchilarning eng ko‘p qismini aynan 18 dan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etadi. Chunki, bu yoshdagi insonlar yangilikka o‘ch, turfa axborotga qiziquvchan, xali mafkuraviy immuniteti, axborot bilan ishlash madaniyati to‘liq shakllanmaganligi bois xar xil tuzoklarga tez ilinadi. Afsuski, radikal odamlarning aldash yo‘li va turli “imtiyozlar” taklif qilish orqali o‘zbek yoshlari orasidan yangi tarafdozlarni yollashga urinish harakatlari so‘nggi paytlarda eng tashvishli tendensiyalardan biri bo‘lmoqda. Statistikadan yana ma’lum bo‘lishicha, radikal ekstremistik tashkilotlar va xalqaro terroristik tashkilotlarga yangi yollanganlarning aksariyati mehnat migratsiyasida bo‘lish paytida yollangan.

Jaholat jamiyatini hech qachon taraqqiyot va saodatga erishtirmaydi [8, 102-b.]. Ma’rifatparvar Islom dinidan g‘arazli maqsadlar yo‘lida foydalanayotgan kuchlar ilmsiz yoshlarni yo‘ldan urib, jaholat girdobiga tortayotgani sir emas. Minglab yoshlar turli oqimlarning ta’siriga tushib, ana shunday jaholat qurbaniga aylangani ham barchaga ma’lum. Shuning uchun yoshlarni ilm olishga undash, kitob o‘qishga targ‘ib etish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo‘lib qolmoqda. Imoni butun, ruhi pok, irodasi baquvvat, vijdoni uyg‘oq odamni aslo yengib bo‘lmaydi. Ana shunday fazilatlarga ega butun bir xalqning qudratini tasavvur etish qiyinmas. Bugun bizni turli axborot vositalari, xususan, internet saytlarining xavfi, “ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlari ko‘proq tashvishga solmoqda. Ushbu mavzuga oid tadqiqotlar G.K.Masharipovaning tadqiqotlariri orqali tanishish mimkin [9, 210 b.; 10, 160 b.; 11, 242 b.; 12, 336-338-bb.].

“Yoshlarimizning ma’naviy olamida bo‘shliq bo‘lmasligi ularning qalbi va tafakkurida sog‘lom hayot tarzi, milliy va umummmilliy qadriyatlarga xurmat va extirom tuyg‘ularini yoshlik paytidan boshlab ularning dunyoqarashiga singdirib va

shu bilan bir qatorda ularning ongida mafkuraviy immunitetni xosil qilishimiz lozim” [13, 492-b.]. Diniy va dunyoviy bilim bilan yoritilgan ta’lim-tarbiya tizimimiz yoshlarimizni har qanday johillikka qarshi kurasha oladigan immunitet bilan – g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishga undashi shubhasiz.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).**

XXI globallashuv asrida yoshlarning qalbi va ongini egallash uchun mislsiz kurash, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar sohasida eng avj pallasiga chiqqan. Chunki ayni paytda ushbu soha kirib bormagan dunyoning biror-bir nuqtasi yoki manzilini topish mushkul. Lekin barcha axborotni foydali va xolis deb bo‘lmaydi. Yoshlarimiz o‘z hayotini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur etolmay qolgani, avvalgilardan ko‘ra “aqilliroq” texnologiyalardan foydalanib yashashlari an’anaviy kundalik tarzga aylanib ulgurganligi kishini mushohadaga chorlaydi, sergak torttiradi. G‘o‘r, endigina hayot pillapoyalaridan odimlayotgan yoshlarimizni axborot xurujlaridan asrash yildan-yilga juda mushkul bo‘lib borayotir. Ularga nima foyda-yu, nima zarar ekanini o‘rgatish, Internetdagi xabarlargacha ko‘r-ko‘rona ergashib ketaverish o‘zini oqil deb hisoblagan odamning ishi emasligini erinmasdan uqtirish kerak.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Sultonov Ilshat Robertovich. “Xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi va uni amalga oshirish tajribasi: siyosiy va huquqiy tahlil” mavzusidagi siyosiy fanlar nomzodligini olish uchun yozilgan dissertatsiya - Moskva, 2001. - 70-b.
2. Зиёдов Ш. Жаҳолатга қарши маърифат билан курашишнинг самарали модели. // “Янги Ўзбекистон” газетаси 2023 йил, 15 апрел, 73-сон.
3. Тўлакбоев Б. Жаҳолатга қарши маърифат билан курашайлик// [https://ravza.uz/story/Jaholatga\\_qarshi\\_marifat\\_bilan\\_kurashaylik](https://ravza.uz/story/Jaholatga_qarshi_marifat_bilan_kurashaylik)
4. Машарипова Г., Исройлов Б., Диёрова Г.Илмдан бошқа нажот йўқ – “Жаҳолатга қарши маърифат” билан курашиш зарурати. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: 4/2-сони 2020 йил.- Б. 54-58.
5. Машарипова Г.К. Жаҳолатга қарши курашишда И мом ал-Бухорийнинг илм олиш тўғрисидаги ҳадисларининг ўрни. // “Бухоронинг ислом цивилизациясидаги ўрни ва унга қўшган ҳиссаси” мавзусидаги халқaro илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. – 2020 йил 20 май.- – Б.203-205.
6. Машарипова Г.К. Хоразм Маъмун Академияси алломалари табиий-илмий, ижтимоий-фалсафий ва маънавий меросининг ижтимоий тафаккур тараққиётiga таъсири. Монография. – Тошкент, Navro’z нашриёти, 2019. - 364 б.
7. Михайлов В. Динни ниқоб қилувчи экстремистик оқимлар таъсирига қарши кураш масалалари.// “Терроризмга олиб келувчи тажовузкор экстремизм ва радикализмнинг олдини олиш ҳамда уларга қарши курашиш юзасидан

экспертларнинг давра сұхбати хуносалари: назария ва амалиёт” // <https://fledu.uz/uz/terrorizmga-olib-keluvchi-tajovuzko.11.01.2021>.

8. Машарипова Г.К. Абу Али ибн Сино илмий-фалсафий ва маънавий меросининг жамият ҳаётидаги ўрни. Монография. – Тошкент, Navro’z нашриёти, 2020. – 144 б.
9. Машарипова Г.К. Ўрта асрнинг буюк кашфиётлари - хоразмлик математикларининг илм-фан тараққиётига қўшган ҳиссалари. Монография. - Тошкент: Navro’z нашриёти, 2021. – 210 б.
10. Masharipova G.K. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va falsafiy qarashlari. Monografiya. - Toshkent, Fan ziyosi, 2022. - 160 b.
11. Masharipova G.K. The Role Of The Development Of Civilization Of Natural Scientific, Socio-Philosophical And Spiritual Information Of Scientists Of The Khorezm Mamun Academy. Monography. - Taemeer Publications LLC (Michigan, USA/ Hyderabad, India), 2024. - 242 p.
12. Masharipova G.K., Ergashova Sh. The View Of Eastern Thinkers On Youth Education. International Conference on Research Innovations in Multidisciplinary Sciences. Mart 6th-7th. New York USA. 2021. - Pp. 336-338.
13. Абдурахмонова Ҳ.Р., Мухторов И. Ш. Жаҳолатга карши маърифат билан. //SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021. – 491-498 б.